

**“O‘ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLİYALASHTIRISH KOMPANIYASI” AJ
MABLAG‘LARI HISOBIDAN RASMIY DAROMAD MANBAIGA EGA BO‘LMAGAN
MIJOZLARGA IPOTEKA KREDITLARINI AJRATISH SHARTLARI**

№	Ko‘rsatkich nomi	Shartlari
1	Mijoz (Qarz oluvchi)	Jismoniy shaxs (norasmiy daromad manbaiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va rezidentlari)
2	Kredit maqsadi	Foydalanishga topshirilgan (kadastr mavjud), turar-joy (birlamchi va ikkilamchi bozordan) sotib olish
3	Daromadlar	1. Tasdiqlanadigan daromad manbalariga ega qarz oluvchilar: Dividend oluvchi shaxslar, Rasmiy ravishda ijara daromadiga ega shaxslar, Rasmiy pul o‘tkazmasi tarixiga ega mehnat muhojirlari**, 1 yillik daromadlar tarixiga ega o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning daromadi 100% Yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlari -20%. 2. Tasdiqlanmaydigan daromad manbalariga ega qarz oluvchilar a) Mijozning bank hisob raqamlari tarixi*** <i>qo‘shimcha ravishda</i> b) Bank xodimining mijoz bilan og‘zaki suhbatda ma’lum bo‘lgan va bank xodimi bozordagi holatga taqqoslab o‘z xulosasida (anketa so‘rovnoma) oshkor qilgan mijozning tasdiqlanmagan daromadlari. 3. 1 va 2 banddagi andarrayting talablariga mos shakllantirilmagan ipoteka kreditlari 12 oylik tarixga ega bo‘lganidan so‘ng hamda "Ipoteka kreditiga talablar"ga mos bo‘lganida qayta moliyalashtiriladi. <i>** Mehnat muhojiri uchun kredit uning daromadlari asosida o‘zining nomiga, turmush o‘rtog‘iga yoki bir manzilda turuvchi otasi/onasi/farzandiga ajratilishi mumkin.</i> <i>*** Mijozlarning to‘lov qobiliyatini ishonchli baholash maqsadida, norasmiy daromadga ega shaxslar uchun bank hisob raqamlari tarixini o‘rganib chiqishi talab etiladi. Ushbu o‘rganish davomida mijoz har oyda kutilayotgan ipoteka kredit to‘lovi miqdoridan kam bo‘lmagan mablag‘ni bank hisob raqamida shakllantirish orqali o‘zining moliyaviy intizomi va to‘lov qobiliyatini amalda isbotlashi lozim.</i>
4	Kreditlash manbai	“O‘zbekiston Ipotekani qayta moliyalash kompaniyasi” AJ mablag‘lari hisobidan
5	Miqdori	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar uchun – 500,0 mln. so‘mgacha Toshkent shahri uchun - 800,0 mln.so‘mgacha (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan limit summa oshirilsa, kredit limiti avtomatik tarzda o‘zgaradi)
6	Muddati	180 oygacha
7	Boshlang‘ich badal	Sotib olinayotgan uy-joy qiymatining - kamida 35%
8	Yillik foiz stavkasi	21,99 foiz
9	Kredit miqdorining uy-joy (garov) qiymatiga nisbati	LTV≤65%. (Ikkilamchi bozordan uy-joy sotib olinayotganda turar joy qiymati sifatida mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan baholangan yoki oldi sotti shatnomasining qaysi biri summasi kichik bo‘lsa shu summa olinadi.)
10	To‘lov usuli	Annuitet yoki differensial usulda (imtiyozli davrsiz)



11	Birgalikda qarz oluvchilar soni	4 nafargacha
12	Kredit ajratish shakli	- Ikkilamchi bozordan uy-joy sotib olinayotganda sotuvchining bank plastik kartasiga o'tkaziladi. - Birlamchi bozordan uy-joy sotib olinayotganda quruvchi (pudrat) tashkilotining bank hisobvarag'iga o'tkaziladi
13	Ta'minot	Kredit hisobiga sotib olinayotgan uy-joy (kvartira)
14	Turar-joy sug'urtasi	Kamida garov summasiga teng miqdorda sug'urta qilinishi zarur
15	Qarz oluvchilar/birgalikda qarz oluvchilar (jismoniy shaxslar) muvofiqlik mezonlari:	- murojaat qilgan kunida 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan va 60 (oltmish) yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari. - ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan foizlarni va asosiy qarzni to'lov jadvaliga muvofiq har oyda to'lash uchun yetarli bo'lgan qonun xujjatlarida taqiqlanmagan daromad manbaiga ega bo'lishi.
16	Qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar	1. Fuqarolik pasporti yoki ID-kartasi; 2. Boshlang'ich badal mablag'larini shakllantirilganligi to'g'risida bank ma'lumotnomasi (birlamchi bozordan xonadon sotib olishda qarz oluvchi tomonidan boshlang'ich badal mablag'lari to'g'ridan to'g'ri pudrat tashkiloti hisobvarag'iga o'tkazilgan hollarda, pul mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat); 3. Sotib olinadigan uy-joyga bo'lgan huquqning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi yoki uy-joyga bo'lgan mulk huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida Davlat reestridan ko'chirma nusxasi yoxud uy-joyga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi boshqa hujjat; 4. Sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida tuzilgan dastlabki oldi-sotdi shartnomasi; 5. Uy-joy qiymatini baholash hisoboti; 6. O'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun-o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida ma'lumotnoma va ijtimoiy soliq to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.
17	Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchilarning qarz yuki ko'rsatkichi	50% dan oshmasligi lozim
18	Ekologik va ijtimoiy boshqarish tizimi (EIBT)	Asbest (xrizotil)-sement tom qoplamali (shifer) turar-joylariga ham, Ijtimoiy va Ekologik Boshqarish Tizimi talablariga rioya qilgan holda ipoteka krediti bersa bo'ladi. Har bir ipoteka krediti EIBT bo'yicha o'rganilishi lozim